



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov**
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E. Usarov**
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O. Ximmataliyev**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I. Mahkamov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B. Qorayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O. Ernazarova**
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.H. Xodjamkulov**
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O. Raxmanova**
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У. Қодирова**
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksizlikni ta'minlashning pedagogik-psixologik mexanizmlari
- 53 **G.S. Abdullayeva**
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- P. Mусупмонов**
59 Uzluksiz ta'lim muassasalarida ўquv jараёнига nisbatan intizomsizlikka oid pedagogik va psixologik qarashlar
- 65 **I. Qodirov**
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F. Ravshanov**
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **Y.YU. Fayzиеva**
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей к ОБЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh. A. Abdusalilova**
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishida uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J. Eshnaev**
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh. X. Kobilova**
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F. Qurbanova**
Uzluksiz ta'limda jараonida zamonaviy yodashuvlar
- 104 **A.R. Raxmonov**
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobillik tizimidan foydalanish
- 110 **I.O. Sayfullayeva**
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S. Ishmatova**
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviylikni ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A. Egamberdiyeva**
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviylikni ta'minlash omillari



TALABALAR IJTIMOYIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ VA INDIVIDUAL YONDASHUVNING DOLZARBLIGI

M. Q. RAXMANOVA,

Toshkent viloyati ChDPU p.f.d. (DSc)

Ushbu maqolada muallif ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarida kasbiy mas'uliyat, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasiga kirib borish uchun individual yondashuvning zarur psixologik-kommunikativ sifatлари, ijtimoiy kompetentligi, ijtimoiy xulq-atvor va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy faollashtirishning samarali yo'llari, ilg'or usul va vositalari sifatida tavsiyalar taqdim etgan.

Tayanch iboralar: *ijtimoiy kompetentlik, ma'naviy faollik, madaniyat, keng dunyoqarash, ijtimoiylik, pedagogik vaziyat; ko'nikma, indikator.*

In this article, the author describes the necessary psychological-communicative qualities, social competence, formation of social behavior and communication skills in students of educational institutions, professional responsibility, individual approach to enter the team of students and teachers, social provided recommendations as effective ways of activation, advanced methods and tools.

Key words: *Social activity, spiritual activity, culture, wide outlook, socialization, teaching situation, skill, indicator.*

В данной статье автор описывает необходимые психолого-коммуникативные качества, социальную компетентность, формирование навыков социального поведения и общения у студентов образовательных учреждений, профессиональную ответственность, индивидуальный подход к вхождению в коллектив студентов и преподавателей, дает социальные рекомендации как эффективные способы активации, передовые методы и инструменты.

Ключевые слова: *социальная компетентность, духовная активность, культура, широкий кругозор, социальность, педагогическая ситуация; навык, показатель.*

Hozirgi davrda bo'lajak mutaxassislarda zamonaviy ko'nikma va malakalarni kasbiy faoliyat uchun zarur darajalarda tarkib toptirish masalasi dolzarb sanalmoqda. Uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi uzluksiz, individual pedagogik yondashuvlar tizimli olib borilsada, bo'lajak mutaxassislarning pedagogik jamoaga tezkor uyg'unlashishi, raqobatbardosh muhitga moslashishi, kasbdoshlari va boshqa ta'lim subektlari bilan tez va samarali muloqotga kirishishi qiyin kechmoqda. Oliy ta'lim davrida talabalarni kasbiy-ijodiy muhitga erta tayyorlash maqsadida jamiyat talablari



asosida harakatlanishga o'rgatish choralari ko'rish muhim masala hisoblanadi. Qanchalik bu choralar tizimli va samarali texnologiyalarga asoslanadi, shunchalik talabalarning pedagogik jamoaga uyg'unlashib ketishi, ya'ni kasbiy amaliyotni qulay tashkil etishga, pirovardida ta'lim sifatiga erishiladi.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy bazasini mustahkamlash, jahon andozalari darajasida ijtimoiy faol, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablariga mos kelishiga, mamlakatimizda o'quvchilarni kasbiy tayyorlashda ijobiy natijalarga erishilishiga, ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvlar, eng avvalo, egallangan kompetensiyalarning qay darajada amalga oshirilayotganligiga bog'liq. amalda. Shu maqsadda biz Coaching metodologiyasidan foydalanishni o'rganib chiqdik. Ingliz tilidan tarjima qilingan murabbiylik «mashq qilish» degan ma'noni anglatadi. Ta'limda bu o'qituvchi va o'quvchining samarali faoliyati uchun imkoniyat yaratadigan uzluksiz jarayon sifatida tushuniladi. Murabbiylik – o'quvchiga muhim ta'lim maqsadiga erishish, uning ichki imkoniyatlarini ochish, kerakli qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, natijalarga erishishning ilg'or strategiyalarini o'zlashtirish uchun individual maslahatlar berishdir. Murabbiylikdan maqsad nimadir o'rgatish emas, balki talaba zarur bilim va tajribani o'zlashtirishi uchun o'z-o'zini tarbiyalash uchun sharoit yaratishdir. Ushbu metodika talabalarning kasbiy va shaxsiy o'sishiga bo'lgan vazifalari va ehtiyojlarini tushunish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan. U hayotning turli sohalari, masalan, ta'lim, biznes, shaxslararo munosabatlar, oila va jismoniy tarbiya kabi rejalarni amalga oshirishga qaratilgan. Murabbiyning yana bir muhim maqsadi talabalarni boshqacha fikrlashga va fikrlashga o'rgatishdir.

Bunday xislatlarga ega bo'lgan barkamol shaxs uzluksiz ta'lim tizimida shakllanadi. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, «ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi».

Demak, talabalarda ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda individual va tizimli yondashuvda shaxs o'z faoliyatida ilmiylikka asoslanadi. Aksincha, fikriy turg'unlik, qaramlik, dogmatizm, ko'r-ko'rona itoat, ko'r-ko'rona taqlid ijtimoiy hayotda illat hisoblanadi. Shunga ko'ra yoshlarni o'qishda, jamoa orasida, oilada, turmushda o'z o'zini topa olmaslik holati jamiyatda o'z qadrini yo'qotishiga olib keladi. O'z qadriga, o'z sha'niga ega bo'lmagan inson hayotda ko'plab to'siqlarga



duchor bo'ladi. Beqaror va salbiy ta'sirlarga tez beriladi, shaxs sifatidagi o'rni esa tobora yo'qolib boradi. Shaxs mustaqilligining asosiy belgilaridan biri ijtimoiy kompetentlikdir.

Yangi pedagogik texnologiyalarni uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiqi va bunga oid metodlarni modernizatsiya qilish, interfaol metodlar metodikasini yaratish hamda ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tizimini ishlab chiqish, bo'lajak mutaxassisni ta'lim jarayonidagi faolligini ta'min etishga qaratilgan izlanishlar professorlar N.Saidahmedov va O'.Tolipovlar tomonidan o'rganildi. Professor N. Saidahmedov uzluksiz ta'lim turlarida pedagogik texnologiyalarni tizimli yondashuv metodi asosida loyihalash qonuniyatlarini, shu asosida o'qituvchi faoliyatini texnologiyalashtirish yo'l-yo'riqlari hamda uning o'ziga xos prinsiplarini ochib berdi.

An'anaviy pedagogikada asosan maktab ta'limi va tarbiyasining mohiyatini o'rganish bilan cheklanilib, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda ijtimoiy tarbiyaning mohiyati masalasiga bir tomonlama yondashilib kelingan edi.

Bugungi kunda yoshlarni ongi va qalbi uchun kechayotgan kurash jarayonida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini pedagogik o'rganish davri yetib kelganligi va bunga oid ijtimoiy pedagogika faniga bo'lgan ehtiyojni davrning o'zi taqozo etayotganligini pedagog olimlar M.Q.Quronov va 3.Q.Qurbaniyazovalar alohida ko'rsatib o'tishgan .

Ijtimoiy burch, ijtimoiy mas'uliyat, bir gap bilan aytganda ijtimoiy vazifani kasb faoliyati darajasiga olib chiqish ehtiyoji vujudga keldi. Shunga ko'ra professor M.Q.Quronov ijtimoiy pedagogika mutaxassisi oldiga quyidagi kasbiy talablarni qo'yadi:

- ijtimoiy axborot berish, ya'ni talabalarga beriladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatish spektrlari haqida ma'lumot berish;
- ijtimoiy-huquqiy yordam, ya'ni talabalarga, jamiyat a'zolariga o'z haquqlarini anglashga yordam berish;
- ijtimoiy-reabilitatsion xizmat, ya'ni insonlarning ma'naviy-axloqiy, emotsional, ruhiy holatlarini tiklashga yordam berish;
- ijtimoiy-iqtisodiy yordam, ya'ni nafaqa, kompensatsiya olishda hamkorlik qilish mehribonlik uylari bitiruvchilariga, yetimlarga moddiy yordam berishni tashkillashtirish;
- ijtimoiy-tibbiy yordam berish, ya'ni bolalarni ijtimoiy patronaj qilish, voyaga yetmaganlar orasida kashandalik, alkogolizm kabi holatlarni profilaktika va reabilitatsiya qilish;



– ijtimoiy-psixologik, ya’ni oilada, turli mikrojamiyatda sog‘lom muhitni tashkil etishga yordam berish;

– ijtimoiy-pedagogik, ya’ni bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning o‘z haq-huquqlarini anglash, ularga sharoitlar yaratish, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi ziddiyatlarni hal etish kabilardan iborat. Talabadan ijtimoiy burchni his etish ko‘nikmasining shakllanishi kelgusida ijtimoiy burchni sidqidildan ado etishga undaydi.

Demak, ijtimoiy burchni his etish boshqa va uni ijro etish, amalda ko‘rsatish boshqa ekanligi izlanishlar jarayonida ma’lum bo‘ldi.

– Shundan kelib chiqib, ijtimoiy burch va ijtimoiy mas’uliyat masalasi shaxsning ijtimoiy xulq-atvor motivlari tarbiyasi ko‘rinishida qaraladi.

Tadqiqot kuzatuvlarimiz tarbiya texnologiyasida har bir ishtirokchining yosh va individual xususiyatini qat’iy hisobga olgan holda, erkin fikr rivojiga, shu asosida fikr tarbiyasi muammosiga asosiy e’tibor qaratilishi lozimligini ko‘rsatmoqda. Chunki fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishda shaxs erkinligi va uning ijtimoiy faolligi hamda fikrlar xilma-xilligini ta’minlashda tarbiya texnologiyasini va uni amalga oshuvda talaba faoliyatining ijtimoiy maqomi tobora ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, pedagog olim Adizov B tarbiya texnologiyasi quyidagi holatlarining izchil va qonuniy bog‘lanishida amalga oshishini belgilovchi ilmiy farazni o‘rtaga tashlaydi va bunda, agar:

– onaning yuksak his-tuyg‘ulari (uning homiladorlik davridan boshlab) sog‘lom tarbiya asosida bo‘lsa;

– sog‘lom muhitda sog‘lom bola tarbiyalansa;

– har bir tarbiyalanuvchi o‘z faoliyatida tarbiya subyektiga aylansa;

– tadbir o‘rnida texnologik talablar asosida tayyorlangan «tarbiyaviy ish» amalga oshirilsa;

– tarbiyada ehtiyojning o‘rni aniq belgilangan bo‘lsa;

– tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalashning izchilligiga erishilsa;

– shaxs tafakkurida real hayotga nisbatan yangicha munosabatlar va yondashuvlar shakllansa;

– tarbiyaning zaminida ta’lim rivojiga erishilsa;

– yangi texnologik tajribalar va ilmiy g‘oyalar asosida nazariya yaratilsa;

– pedagogik mahoratning kafolatli natijalari yangi texnologiyalar rivojiga asos bo‘lib xizmat qilsa;

– shaxsning orzu niyatlari texnologik talablar bilan uyg‘unlasha olsa;



– shaxs yashab turgan jamiyatda tobora o‘z qadr-qimmatini topa borsa, fozil-likka va komillikka intilish shart-sharoiti yaratilgan bo‘ladi [20; 46.].

Darhaqiqat, ta‘lim texnologiyasi bo‘yicha bugungi kunda bir muncha tajribalar qo‘lga kiritilib, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qator maqolalar chop etilmoqda. Bu borada har bir oliy o‘quv yurti o‘zining bor imkoniyatlarini ishga solib, ta‘lim texnologiyalarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilib, innovatsion texnologiyalar tatbiqiga oid ibratli ishlar o‘rganilmoqda. Shu bilan birgalikda internetdan olingan materiallarimizga asoslanib, bu borada qiyosiy tahlillar olib borish ham mumkin.

Tadqiqot izlanishlarimiz ijtimoiy kompetentlikni to‘g‘ri shakllanishida bolani yoshligidan boshlab jinsiga mos ish bilan shug‘ullantirish lozimligini ko‘rsatdi. Har doim o‘g‘il bola uchun o‘g‘il bolaga xos, qiz bola uchun qiz bolaga xos ish bilan shug‘ullantirish ijtimoiy faollikka xos yo‘nalishlarni belgilashda alohida o‘rin tutishi aniqlandi.

Ta‘limni shaxsga yo‘naltirilgan ushbu tizimida talaba maqsadni ko‘zlashi uchun unga erkinlik berish zarur. Erkinlik harakatga, intilishga olib keladi. Albatta bu o‘rinda talabaning bilimdon, individual xususiyatlari bo‘lishi zarur sifatlardan biri hisoblanadi. Talabaning bilimi sayoz bo‘lsa, undagi topqirlik, hozirjavoblik ko‘zga tashlanmaydi. O‘z-o‘zidan talaba tashabbusni qo‘lga kiritmaydi. Demak, talaba ta‘limiy jihatdan faollikni qo‘lga kiritmaydi. Ravshanki, bunday talabada maqsad aniq bo‘lolmaydi.

Ta‘lim jarayoniga interfaol metodlarning tatbiqi asosida talabalarni dars jarayonidagi faolligiga erishish ijtimoiy faollikka yo‘naltiruvchi omil vazifasini o‘tashi mumkinligi tadqiqiy kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlarimiz jarayonida yanada o‘z e‘tirofini topdi.

Ijtimoiy hayotning mazmuni, jamiyat ravnaqi talabaning ijtimoiy faolligida, uning mevasi-barkamol avlod tarbiyasida o‘z ifodasini topadi. Shundan kelib chiqib, dissertatsiya ishining ikkinchi paragrafi ijtimoiy faollikni rivojlantirishning mazmunini o‘rganishga qaratilgan.

Keltirilgan mushohadalardan ma‘lum bo‘ladiki, shaxsning ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish va uning ahamiyati masalalariga doir ilmiy-tadqiqotlarda o‘ziga xos yondashuvlar va tahlillar bayon qilingan. Ta‘kidlash lozimki, ilmiy-tadqiqotlarda bevosita talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammosi tadqiq etilgan emas.



Hozirgi vaqtda bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuv, ma’naviy o‘sishi, dunyoqarashining kengayishi ularning mehnat jarayonini samarali tashkil qilish, ijodiy potensialini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga intilishi ham kuchaymoqda. Mehnatga, ijodga, insonning jamiyatdagi o‘rniga qiziqish yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasi, individual xususiyatlari hamda ularning o‘z-o‘ziga baho berishi, huquqiy va axloqiy jihatdan o‘zini anglashi bilan o‘zaro bog‘liq. Shu narsa muhimki, tadqiqotchilar faollikni, kreativlikni ham xususiyat, ham jarayon sifatida belgilaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsan javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: O‘zbekiston, 2017. - 104 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» //Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997. - B. 31-61.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008. - 176 b
4. Adizov B. Talabalar o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirish. Met. qo‘l. - Buxoro, 2001 yil. - 46 b.
5. Quronov M., Qurbonniyozova 3. Ijtimoiy pedagogika. - T.: RTM, 2002. - 134 b.
6. Mitina L.M. Uchitel kak lichnost i professional (psixologicheskie problemy). - Moskva: Delo, 1994. - 215 s.
7. Sayidahmedov N.S. O‘qituvchining pedagogik tizimda tutgan o‘rni // Xalq ta’limi. - T., 1993. - № 6-7. - B. 9-12.
8. Tolipov U.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005. - 205 b.